

NAZAR ESHONQUL ROMANIDA KOMPOZITSION YAXLITLIK
("GO'RO'G'LI" ROMANI MISOLIDA)

Eshpo'latova Kamola Abdijalilovna

Qarshi tumani 45-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17526081>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li" romani misolida asarning kompozitsion tuzilishi, syujet va boblar qatori orqali yaratilgan yaxlitlik va o'ziga xoslik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda asardagi vaqt-makon (xronotop) o'zgarishlari, voqealar ketma-ketligi, fragmentar tuzilish hamda roman ichidagi loyihaviy bo'linishlar ko'zdan kechiriladi. Maqola orqali qahramonning ruhiy holati, jamiyat bilan munosabatlari va buning fonida kompozitsion muammolar qanday aks etgani haqida xulosalar keltiradi.

Kalit so'zlar: kompozitsion o'ziga xoslik, syujet, xronotop, fragmentarlik, zamon-makon, nasr uslubi.

Mustaqil O'zbek adabiyotida har bir nasriy asar nafaqat mazmuni bilan, balki uning tuzilishi, syujet mexanizmi va kompozitsion tashkiloti bilan ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li" romani ana shunday asarlardan biridir: unda nafaqat voqealar rivoji, balki ularning joylashuvi, vaqt bosqichlari va boblarga bo'linishi orqali muayyan tuzilma hosil qilingan. Roman kompozitsion jihatdan an'anaviy chiziqli syujetga qat'iy rioya qilmaydi — vaqt va makon o'zgaradi, boblar turli nuqtai nazardan ochiladi, fragmentar bo'laklar paydo bo'ladi. Shu bilan birga, asardagi har bir bo'lim, har bir epizod muallifning stilistik tanlovi sifatida ishlaydi va o'quvchiga — faqat voqeani emas, balki syujet ichidagi "shakl"ni ham idrok etish imkonini beradi.

"Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romani mavzusi va kompozitsion o'ziga xosligi bilan yangi hodisa bo'ldi. Asarning nomi sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi qahramonlik dostonlarini eslatadi. Ammo biz asar mutolaasi davomida Go'ro'g'li deb nomlangan birorta ham qahramonni uchratmaymiz. Asar insonning mavjudligini tan olmagan, uning sha'ni va g'ururini toptagan mustabid tuzum va uning kirdikorlari haqida hikoya qiladi. Romanda Go'ro'g'li obrazi uchramasa-da, qahramon ruhiyatidagi ijtimoiy-ma'naviy tanazzul xalq dostonidagi Go'ro'g'li ruhiyati bilan hamohangdir. Doston qahramoni Go'ro'g'li ham odamlardan ko'ngli qolib, Bolli ko'lga chiqib ketgan edi. Roman qahramoni N.esa odamlardan ko'ngli qolib, hayotni tark etib ketadi. Albatta, roman bosh qahramoni N. haqiqat va adolatga intilishi jihatidan xalq qahramoni Go'ro'g'li dahosidan oziqlangan.

"Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" romanining bosh qahramoni N. ismli shaxs. Yozuvchi roman qahramonlarining avvalgi romanlarimizdan farqli o'laroq, hech biriga nom qo'ymagan, ularni "sartarosh", "qorovul", "kotiba", "yordamchi", "rahbar", "tepakal", "juvon", "baqaloq", "novcha", "yordamchi", "semiz", "tergovchi", "N" kabi nomlar bilan atagan. Bu qahramonlar nomini o'qiyotgan zukko kitobxon Frans Kafkaning "Jarayon" romani bilan mushtarak ayrim jihatlarni payqaydi. N. shiftgacha bo'lgan hujjatlarni erta kech titib o'tiruvchi oddiy bir xodim. Roman voqealari qo'l ostidagi xodimlari bilan deyarli gaplashmaydigan mahkama boshlig'ining N.ni huzuriga chaqirish haqidagi xabar bilan boshlanadi. Bu xabar esa butun mahkamaga bir zumda tarqaladi: kimdir unga, ya'ni N. ga havas, boshqasi esa hasad bilan

Noyabr, 2025-Yil

qaray boshlaydi. Lekin bu xabar boshliqlarning adashishi natijasida xatò bo'lib chiqadi. Bu chalkashlik N.ning butun hayotini butunlay boshqa tomonga o'zgartirib yuboradi.”Havo rutubatli, avzoyi buzuq, qor uchqunlab turar, shahar to'zon ostida qolganday edi”. Bu N.ning boshliq qabuliga chaqirilgan kundagi tabiatdagi manzara. Yozuvchining bu manzarani berishidan maqsadi N. ning hayotiga kirib kelayotgan keyingi kunlarga ramziy ishora qilish. Romandagi barcha qahramonlar ulkan mahkama boshlig'i izmidagi xizmatkorlar. Boshliq uchun esa xodimlarning umuman farqi yo'q, chunki ularning barchasi bilan bir xil mavzuda gaplashadi va barchasining javobi ham bir xil. Ya'ni shaxsiy fikri, mulohazasi yo'q, bo'lganda ham aytmaydi, yoki ayta olmaydi. Shuning uchun ular nomga munosib emas. Adibning qarashicha: “Fikrlayotgan odam– o'zining mavjudligini isbotlashga urinayotgan odam. Mavjudlikka intilish–falsafiy va murakkab hissiy jarayon. Jamiyatda mavjud bo'lib yashashdan, mavjudligini isbotlab yashashdan mavjudlikka intilmay yasash oson.

“Jarayon” va “Go'ro'g'li” romani qahramonlari Yozef K va N. ayni navqiron yoshida, ya'ni 30 yoshida hayotida sodir bo'lgan kutilmagan voqea hayotiga nuqta qo'yilishiga sababchi bo'ladi. Bunda asosiy aybdor ular yashayotgan jamiyatdagi ulkan tashkilot vaamaldorlar. “Jarayon” romanida shunday misralar bor: “Bunday tashkilot o'z ish yo'sinida faqat sotib olingan qo'riqchilarga ega bo'lib qolmasdan, qulay hollarda maqtovga sazovor xosikorliklarni namoyon etuvchi kaltafahm nazoratchi-yu tergovchilarga, yana bularning hisobiga kirmagan son-sanoqsiz va hamisha oylikxo'r yuqori past sud hakamlari, jandarmilar, mirza va yana allaqancha xizmatchi va boshqa yordamchilarga, hatto, men bu so'zni aytishdan hech qo'rqmayman -mirga'zab jallodlarga egadir”. Ularning hammalari sotilgan, zanjiri bir -biriga bog'liq to'da. “Go'ro'g'li” romanida tasvirlangan tashkilot xodimlari ham aynan “Jarayon” dagi qahramonlarni eslatadi.

Frans Kafka ham, Nazar Eshonqul ham butun e'tiborni qahramonning ‘men” iga qaratadi. “Go'ro'g'li” romanida voqealarning ramziy tasvirlari orqali insonning nodonlik va jaholat qarshisidagi fojiaiy ojizligi, imkoni cheklanganligi ifodalarida ham Frans Kafkaning ijodiy ta'sirini sezamiz. Romanlarda tasvirlangan mahkama, idora keng ma'noda, jamiyatni anglatadi. N. timsolida ham, Yozef K. timsolida ham hayotning adolatsizliklari aks ettirilgan. Har ikki yozuvchi ham inson hayoti ma'nisizligi asosini odam intilishlarining cheksizligi va imkoniyatlarining cheklanganligi o'rtasidagi tuganmas qarama-qarshilikda deb biladi. Odam ko'p narsaga erishishni istaydi, umri mobaynida harakat qiladi, o'zidan kechadi, lekin ko'p hollarda hech narsaga erisholmaydi. Har ikki yozuvchining romanlarida inson zotining mana shu ojizligi butun fojiasi bilan aks ettirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazar Eshonqul. Go'ro'g'li. Toshkent.: 2012-yil, 54-bet.
2. Q.Yo'ldoshev. Yoniq so'z. Toshkent., “Yangi asr avlodi”, 2006, 395–bet.
3. Frans Kafka. Jarayon.– Toshkent.: 2016–yil, 83-bet.